XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2021 - yil 30 - sentabr VI-33-41-8-113-K/21 Qiziriq tuman hokimligi

Yer solig'i to'lash stavkasi bo'yicha zona chegaralarining sxemasi va tariflarini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 28-moddasi, Soliq kodeksining 437-moddasi, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 9-dekabrdagi O'RQ-589-son "2020-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrdagi PQ–3454-son "O'zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi qarori 28-bandi ijrosi yuzasidan yer solig'i to'lovlarini o'z vaqtida mahalliy budjetga undirilishini ta'minlash, yer solig'i to'lash stavkalari asosida hududdagi zona chegaralarini belgilash va tariflarini joriy qilish bo'yicha taklif hamda ushbu qaror tuman adliya bo'limida huquqiy ekspertizadan o'tkazilganligi bo'yicha xulosani e'tiborga olib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman kengashi,

Q A R O R Q I L A D I:

1. Xalq deputatlari Qiziriq tuman Kengashining 2020-yil 28-dekabrdagi "Qiziriq tumanining 2021-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi 107/VI-24-son qarori qonunga moslashtirilsin.

2. Xalq deputatlari Qiziriq tuman Kengashining 2020-yil 28-dekabrdagi "Qiziriq tumanining 2021 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida"gi 107/VI-24-son qarorining 7-ilovasi bekor qilinsin.

3. Qiziriq tumani hududida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yer

uchastkalaridan foydalanganlik uchun yer solig‘i stavkalari 1-ilova, Yer solig‘ini to‘lash stavkalari bo‘yicha Qiziriq tumanining hududiy zona chegaralari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Qiziriq tuman Davlat soliq inspeksiyasi (R.Sattorov)ga:ilovaga muvofiq tasdiqlangan zonalar hududi bo‘yicha yer solig‘ini to‘lovchilardan soliqlarni hisoblash va undirish;

barcha qishloq va mahalla fuqarolar yig‘ini hududlarida soliqlarning ahamiyati, ayrim toifadagi jismoniy shaxslarga soliqlardan beriladigan imtiyoz to‘g‘risida, shuningdek soliqlarning o‘z vaqtida to‘lab borilishi to‘g‘risida keng tushuntirish ishlarini olib borish;

aholi o‘rtasida O‘zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligi bo‘yicha amaldagi me’yori-huquqiy hujjatlarning mohiyati yuzasidan qishloq va mahalla fuqarolar yig‘ini raislari hamda faollar ishtirokida muntazam ravishda seminar yig‘ilishlar o‘tkazish vazifasi yuklatilsin.

5. Xalq deputatlari Qiziriq tuman Kengashining 2020-yil 28-dekabrdagi “Qiziriq tumanining 2021-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 107/VI-24-son qarorining 12-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qaror “Taraqqiyot” gazetasida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari I.Yarmatov zimmasiga yuklansin.

Hokim **Yusupov I. E.**

Халқ депутатлари Қизирик туман кенгашининг
2021 йил 30 сентябрдаги
VI-33-41-8-113-K/21-сон қарорига
1-илова

Qiziriq tuman hududida yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan yer uchastkalardan foydalanganlik uchun yer solig‘i STAVKALARI

Tuman	Yer solig‘i stavkalari, undirilishi							
	Yuridik shaxslardan 1 ga uchun, summa				Fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish uchun ajratilgan yer uchastkalaridan 1 kv.m. uchun, so‘mda.			
	I zona	II zona	III zona	IV zona	I zona	II zona	III zona	IV zona
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Qiziriq tumani	16 469 556,2	16 469 556,2	16 469 556,2	21 175 143,7	155,12	155,12	155,12	166,2

Халқ депутатлари Қизирик туман кенгашининг
2021 йил 30 сентябрдаги
VI-33-41-8-113-K/21-сон қарорига
2-илова

Yer solig‘ini to‘lash stavkalari bo‘yicha Qiziriq tumanining hududiy zona

CHEGARALARI

T/r	I zona	II zona	III zona	IV zona
1.	Qorasuv MFY	Gilambob MFY	Oqjar MFY	Qishloqozon MFY
2.	Gulobod MFY	Yetimqum MFY	Muslaqillik MFY	Rabotak MFY
3.	Zarobod MFY	Yangi kent MFY	Bog‘iston MFY	Do‘stlik MFY
4.	Takiya MFY	Xalqobod MFY	Buyuk kelajak MFY	Shodlik MFY
5.	Xamkon MFY	Kunchiqish MFY	Yakka terak MFY	Yangi turmush MFY
6.	Navro‘z MFy	Zartepa MFY	Karmaki MFY	
7.	Yangi obod MFY	Zarbdor MFY	Yangi xayot MFY	
8.	Istiqlol MFY		Istara MFY	
9.	Tinchlik MFY		Gulzor MFY	
10.			Bog‘bonlar yurti MFY	